



# **Maktab ichimlik suvida qo'rg'oshinni aniqlash bo'yicha standart operatsion tartib-qoidalar**

2026-yil, 22-may

# Nyu-York shahri Ta'lim boshqarmasining (DOE) suv tarkibidagi qo'rg'oshinni sinovdan o'tkazish protokoli

## Maqsad bayonoti

Nyu-York shahri Ta'lim boshqarmasi (NYC DOE) o'quvchilar uchun xavfsiz va sog'lom muhit yaratish hamda maktab ichimlik suvida qo'rg'oshinni aniqlashga oid barcha amaldagi qoida va me'yorlarga rioya etish majburiyatini ta'minlash maqsadida ushbu Standart operatsion tartib-qoidalarini (SOP) amalga oshiradi. Ushbu SOP darhol kuchga kiradi hamda bino ekspluatatsiyasi muhandislari (Custodian Engineers - CE) va ekologiya bo'yicha maslahatchilar (Environmental Consultants - EC) tomonidan qat'iy bajarilishi shart. Nyu-York shtatining maktab ichimlik suvida qo'rg'oshinni aniqlash to'g'risidagi reglamenti (Nomi: "Reglamentning 67-4 kichik bo'limi: Maktab ichimlik suvida qo'rg'oshinni aniqlash")<sup>1</sup> barcha maktab binolarida har besh yilda bir marta qo'rg'oshin miqdorini sinovdan o'tkazishni majburiy qilib belgilaydi.

## Sinov doirasidagi suv nuqtalari

Sinov doirasidagi suv nuqtasi bu hozirda ichish yoki ovqat tayyorlash maqsadida foydalanilayotgan yoki kelgusida foydalanilishi mumkin bo'lgan ichimlik suvi moslamasi bo'lib, u o'z ichiga suv purkagich, ichimlik suvi favvorasi yoki jo'mraklarni oladi. NYC DOE maktab binolaridagi barcha sinov doirasidagi suv nuqtalari har besh yilda bir marta ekologiya bo'yicha maslahatchilar (EC) tomonidan sinovdan o'tkaziladi.

## Sinov doirasidan tashqaridagi suv nuqtalari

Sinov doirasidan tashqaridagi suv nuqtalaridan namunalar olinmasligi kerak. Sinov doirasidan tashqaridagi suv nuqtalariga quyidagilar kiradi:

1. Muhofaza qilinadigan (eshigi qulflanadigan) xonadagi texnik idishlarni yuvish jo'mragi
2. Oshxona ichidagi texnik idishlarni yuvish jo'mragi
3. Oshxona ichidagi bug'li pishirgichlar
4. Chiqindilarni saralash/idishlarni yuvish xonalaridagi jo'mraklar
5. Laboratoriya xonalaridagi jo'mraklar va muz generatorlari
6. O'quv xonalaridagi laboratoriya rakovinalari
7. Shlang ulanadigan tashqi jo'mraklar
8. Dush boshchalari va vanna jo'mraklari
9. Ko'zni yuvish favvorolari
10. Kuspidor - "Tupurgich"
11. Muhofaza qilinadigan qozonxona/texnik xonalardagi suv nuqtalari
12. Muhofaza qilinadigan omborxonalardagi suv nuqtalari
13. Issiq suv jo'mraklari
14. Harorati aralashtiriladigan jo'mraklar
15. Soch yuvish rakovinalari

## Yorliqlash

Barcha DOE maktab binolaridagi har bir tegishli suv nuqtasi o'ziga xos shtrix-kodga ega bo'lgan metallashtirilgan yopishqoq yorliq bilan markalanadi va ushbu shtrix-kod markaziy qo'rg'oshin ma'lumotlar bazasiga kiritiladi. Shtrix-kod moslama har safar sinovdan o'tkazilganda skanerlanadi. Bu

---

<sup>1</sup> <https://regs.health.ny.gov/volume-1a-title-10/1942050456/subpart-67-4-lead-testing-school-drinking-water>

avvalgi sinov bosqichlaridan olingan ma'lumotlarning markaziy ma'lumotlar bazasiga to'g'ri kiritilishini ta'minlaydi hamda har bir moslama darajasida o'tkazilgan barcha sinovlar, jumladan sinov sanasi va natijalari bo'yicha qaydlar tarixini yaratadi. Metallashtirilgan yopishqoq yorliqlar suv nuqtasi atrofidagi xalaqit bermaydigan joylarga yopishtiriladi va o'sha yerda doimiy saqlanadi.

## Sinov tartib-qoidalari

### 2. Ekologiya bo'yicha maslahatchilar (EC)

#### a. Joylardan foydalanishni muvofiqlashtirish

- i. Ekologiya bo'yicha maslahatchilar har payshanba kuni soat tushdan kechikmay kelgusi hafta uchun taklif qilinayotgan namuna olish reja-grafigini Ta'lim boshqarmasining (DOE) Suv sifati va qo'rg'oshin me'yorlariga rioya etilishini nazorat qilish (WQLC) bo'limiga taqdim etishlari shart. Ushbu reja-grafikda maktab nomi/bino ID raqami hamda rejalashtirilgan sinov sanasi va vaqti ko'rsatilishi lozim.
- ii. Rejalashtirilgan namuna olish sanasidan bir kun oldin, EC vakili namuna olishga tayyorlik holatini tasdiqlash uchun obyektga tashrif buyuradi. Obyektga tashrif suv nuqtalari joylashgan barcha xonalarga kirish imkoniyati borligini, suvning 8–18 soatlik harakatsiz davriga rioya qilish imkoniyati mavjudligi va bunga amal qilinayotganini hamda maktabdan hamrohlik qiluvchi xodim borligini tasdiqlashni o'z ichiga oladi.
  1. WQLC bo'limi sinov reja-grafigini tasdiqlaganidan keyin, EC vakiliga binoga kirishni ta'minlaydigan hamda suv namunalarini yig'ish uchun binoda hamrohlik qiladigan bino ekspluatatsiyasi muhandislari tarkibidagi mas'ul xodimning aloqa ma'lumotlarini taqdim etadi.
  2. Yangi, sinov doirasidan tashqarida bo'lgan va/yoki ilgari kirish imkoni bo'lmagan yoki foydalanishdan chiqarilgan suv nuqtalari aynan shu vaqtda skanerlash qurilmasiga kiritilishi mumkin.

#### b. Namunalar olish

- i. Ekologiya bo'yicha maslahatchilar (EC) tayyorgarlik ishlarini boshlash uchun namuna olish vaqtidan bir soat oldin obyektga tayinlangan bino ekspluatatsiyasi muhandislari bilan uchrashishlari shart.
- ii. EC va tayinlangan bino ekspluatatsiyasi muhandislari biror suv nuqtasi ochiq qolib ketmaganini yoki undan to'xtovsiz suv oqmayotganini tekshirish uchun binoni ko'zdan kechirib chiqadilar. Agar biror suv nuqtasi ochiq qolgan va undan uzluksiz suv oqib turgan bo'lsa, namuna olish jarayoni bekor qilinadi va boshqa muddatga ko'chiriladi.
- iii. EC namuna olishni boshlashdan oldin butun maktab binosidagi suv 8 soatdan 18 soatgacha bo'lgan vaqt davomida harakatsiz turganini tayinlangan bino ekspluatatsiyasi muhandislari bilan qayta tasdiqlashlari shart. Agar stagnatsiya davri 8 soatdan kam yoki 18 soatdan ko'p bo'lsa, namuna olish jarayonini amalga oshirib bo'lmaydi.
- iv. Suv namunasini olishdan oldin suv tizimiga hech qanday o'zgartirish kiritish mumkin emas, masalan, jo'mrak aeratorlari yoki to'rlarini yechib olish taqiqlanadi.
- v. Namunalar „sinov doirasidan tashqaridagi“ suv nuqtalaridan olinmasligi kerak.
- vi. Namunalar faqat sinov doirasidagi sovuq suv jo'mraklaridan olinishi lozim.
  1. EC namunalar yig'ishda DOE skanerlaridan foydalanadilar. Jarayon quyidagicha amalga oshiriladi:
    - a. Qurilmada kerakli bino tanlanadi.
    - b. Yorliqni skanerlash yoki shtrix-kod raqamini qo'lda kiritish orqali (zaruratga qarab) tegishli suv nuqtasi tanlanadi.
    - c. Namuna olish idishiga oldindan bosib chiqarilgan shtrix-kod skanerlanadi.
    - d. Namuna ID raqami quyidagi ma'lumotlar bilan birga tizimga yozib olinadi: operator, qurilma ID raqami, bino ID raqami, katalog ID raqami hamda sana/vaqt.
    - e. Namunalar DOE WQLC bo'limi tomonidan EC vakillariga taqdim etilgan, oldindan tozalangan va kislota bilan barqarorlashtirilgan 250 ml hajmli plastik idishlarda to'planishi kerak.
    - f. Namuna yig'ish jarayoni binoga suv quvuri kiradigan nuqtaga eng yaqin bo'lgan suv chiqish joyidan boshlanishi shart.

- g. Har bir suv nuqtasidan bittadan namuna olinishi lozim. Birinchi namuna jo'mrak birinchi marta ochilganda olinishi shart (1- oqim namunasi).
  - h. Suv oqimi tezligi oddiy stakanni to'ldirishda ishlatiladigan tezlik bilan bir xil bo'lishi kerak.
  - i. Namuna sifatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan har qanday holat, masalan, jo'mrakdan suv tomib turishi, suv rangining o'zgarganligi, suv bosimining pastligi va h.k., zanjirli hisobot hujjatlarida qayd etilishi lozim.
  - j. Suv rangi o'zgargan yoki oqim tezligi past bo'lgan taqdirda ham namuna olinishi shart.
2. Qurilma tarmoqqa ulangandan so'ng, ma'lumotlar ma'lumotlar bazasiga yuklanadi. Shundan so'ng, laboratoriyaga yuborish uchun tegishli hisobotlar shakllantirilishi mumkin.
- a. EC vakili zanjirli hisobot xavfsizligini tasdiqlash uchun bevosita qurilmaning o'zida elektron imzo qo'yishi shart. Agar biror sababga ko'ra EC vakili bevosita qurilmada imzo qo'ya olmasa, u qog'oz nusxasini imzolashi lozim.

### 3. Maktab obyektlari bo'limi (DSF)

#### a. Xodimlarning vazifalari

##### i. Suv sifati bo'linmasi

- 1. Me'yordan oshish holatlaridagi protokollar
  - a. Suv tarkibidagi qo'rg'oshinni sinovdan o'tkazish natijalari olingandan so'ng, WQLC bo'limi xodimi tegishli maktab rahbariyatiga hamda DSF hududiy ishchi guruhiga natijalar va ulardan qanday choralar talab qilinishi haqida elektron pochta orqali xabar yuboradi. Ushbu bildirishnoma xatida qaysi suv moslamasida qo'rg'oshin miqdori yuqori chiqqani va ko'rilishi kerak bo'lgan tegishli choralar ko'rsatiladi.
- 2. Me'yordan oshmagan holatlardagi protokollar
  - a. Suv tarkibidagi qo'rg'oshinni sinovdan o'tkazish natijalari olingandan so'ng, WQLC bo'limi xodimi tegishli maktab rahbariyatiga hamda DSF hududiy ishchi guruhiga natijalar va ulardan hech qanday choralar talab qilinmasligi haqida elektron pochta orqali xabar yuboradi.

##### ii. Bino ekspluatatsiyasi muhandisi

Bino ekspluatatsiyasi muhandisi (CE) binoga xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni jalb qilgan holda sinov doirasidagi suv moslamasini almashtirganda, keyingi qo'rg'oshin sinovini o'tkazish uchun WQLC bo'limiga ish buyurtmasi taqdim etilishi shart. Yangi o'rnatilgan moslama sinovlar oxiriga qadar va zarurat bo'lganda me'yordan oshish holatlaridagi protokollar bajarib bo'linguncha foydalanilmasdan qolishi kerak. Bu qoida ovqat tayyorlash yoki ichish uchun foydalanilmaydigan sovuq suv jo'mraklariga taalluqli emas. Ichish yoki ovqat pishirishda ishlatilmaydigan sovuq suv jo'mraklari ham sinovdan o'tkazilishi shart, biroq sinov natijalari ruxsat etilgan me'yordan past chiqquniga qadar ulardan „faqat qo'l yuvish uchun“ degan ogohlantirish belgisini osib qo'ygan holda foydalanish mumkin. Agar moslama ovqat tayyorlash yoki ichish uchun foydalanilsa, u sinov natijalari ruxsat etilgan me'yordan past chiqquniga qadar mutlaqo o'chiq holatda turishi shart.

##### iii. Malakali ustalar

Malakali ustalar suv moslamasini ko'zdan kechirib, uni almashtirish zarur deb topganda, usta-koordinator tomonidan ish buyurtmasiga inventarizatsiya qilish, yorliqlash va WQLC bo'limi tomonidan o'tkaziladigan keyingi sinovlar uchun zarur bo'lgan vazifalar kiritilishi shart. Bu qoida ovqat tayyorlash yoki ichish uchun foydalanilmaydigan sovuq suv jo'mraklariga taalluqli emas. Ichish yoki ovqat pishirishda ishlatilmaydigan sovuq suv jo'mraklari ham sinovdan o'tkazilishi shart, biroq sinov natijalari ruxsat etilgan me'yordan past chiqquniga qadar ulardan „faqat qo'l yuvish uchun“ degan ogohlantirish belgisini osib qo'ygan holda foydalanish mumkin. Agar moslama ovqat tayyorlash yoki ichish uchun foydalanilsa, u sinov natijalari ruxsat etilgan me'yordan past chiqquniga qadar mutlaqo o'chiq holatda turishi shart.

##### iv. DSF guruhlar pudrat menejeri

Pudrat menejeri sinov doirasidagi har qanday suv moslamasini almashtirish yoki o'rnatish bo'yicha taklif olganda, WQLC bo'limi tomonidan sinov o'tkazish vazifasini qo'shish uchun guruh

usta-koordinatoriga murojaat qiladi. Yangi (almashtirilgan?) moslama sinovlar yakunlanguniga qadar va zarurat bo'lganda me'yordan oshish holatlaridagi protokollar yakunlanmaguniga qadar foydalanilmasligi kerak. Bu qoida ovqat tayyorlash yoki ichish uchun foydalanilmaydigan sovuq suv jo'mraklariga taalluqli emas. Ichish yoki ovqat pishirishda ishlatilmaydigan sovuq suv jo'mraklari ham sinovdan o'tkazilishi shart, biroq sinov natijalari ruxsat etilgan me'yordan past chiqquniga qadar ulardan „faqat qo'l yuvish uchun“ degan ogohlantirish belgisini osib qo'ygan holda foydalanish mumkin. Agar moslama ovqat tayyorlash yoki ichish uchun foydalanilsa, u sinov natijalari ruxsat etilgan me'yordan past chiqquniga qadar mutlaqo o'chiq holatda turishi shart.

v. **Uchinchi tomon ishlari**

Sinov doirasidagi suv moslamalarini almashtirishni talab qiladigan har qanday ishlar uchun tuman pudrat menejeri texnik topshiriq yoki shartnomaga mazkur moslama almashtirilgandan keyin qo'rg'oshin sinovini o'tkazish majburiy ekanini ko'rsatuvchi bandni kiritishi shart. Yangi o'rnatilgan moslama sinovlar oxiriga qadar va zarurat bo'lganda me'yordan oshish holatlaridagi protokollar bajarib bo'linguncha foydalanilmasdan qolishi kerak. Bu qoida ovqat tayyorlash yoki ichish uchun foydalanilmaydigan sovuq suv jo'mraklariga taalluqli emas. Ichish yoki ovqat pishirishda ishlatilmaydigan sovuq suv jo'mraklari ham sinovdan o'tkazilishi shart, biroq sinov natijalari ruxsat etilgan me'yordan past chiqquniga qadar ulardan „faqat qo'l yuvish uchun“ degan ogohlantirish belgisini osib qo'ygan holda foydalanish mumkin. Agar moslama ovqat tayyorlash yoki ichish uchun foydalanilsa, u sinov natijalari ruxsat etilgan me'yordan past chiqquniga qadar mutlaqo o'chiq holatda turishi shart.

vi. **SCA kapital ta'mirlash ishlari**

SCA (Maktablar qurilishi boshqarmasi) maktabda modernizatsiya ishlarini yakunlab, bu jarayonda sinov doirasidagi biror suv moslamasini almashtirganda yoki yangisini qo'shganda, bino ekspluatatsiyasi muhandisi keyingi qo'rg'oshin sinovini o'tkazish uchun WQLC bo'limiga ish buyurtmasini yaratishi shart. Yangi o'rnatilgan moslama sinovlar oxiriga qadar va zarurat bo'lganda me'yordan oshish holatlaridagi protokollar bajarib bo'linguncha foydalanilmasdan qolishi kerak. Bu qoida ovqat tayyorlash yoki ichish uchun foydalanilmaydigan sovuq suv jo'mraklariga taalluqli emas. Ichish yoki ovqat pishirishda ishlatilmaydigan sovuq suv jo'mraklari ham sinovdan o'tkazilishi shart, biroq sinov natijalari ruxsat etilgan me'yordan past chiqquniga qadar ulardan „faqat qo'l yuvish uchun“ degan ogohlantirish belgisini osib qo'ygan holda foydalanish mumkin. Agar moslama ovqat tayyorlash yoki ichish uchun foydalanilsa, u sinov natijalari ruxsat etilgan me'yordan past chiqquniga qadar mutlaqo o'chiq holatda turishi shart.

**b. Idishlarni to'ldirish moslamalari bo'yicha protokol**

- i. Idishlarni to'ldirish moslamasi va/yoki oshxona jihozlari (bundan buyon matnda „Moslamalar“ deb yuritiladi) o'rnatilgandan so'ng, iltimos, WQLC bo'limining mas'ul xodimlariga va DSF hududiy ishchi guruhiga elektron pochta orqali xabar yuboring.
- ii. Oson aniqlanishi uchun ushbu elektron xatda yangi o'rnatilgan moslamaga oid quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:
  1. Maktab binosining ID raqami
  2. Joylashgan o'rni va/yoki eng yaqin xona raqami
- iii. Agar yangi moslama eskisining o'rniga o'rnatilgan bo'lsa, ushbu eski moslamaga tegishli bo'lgan avvalgi inventar raqamini ko'rsating. Bu WQLC bo'limiga suv moslamalarining yangilangan ma'lumotlar bazasini yuritish imkonini beradi.
- iv. Bundan tashqari, bino ekspluatatsiyasi muhandisini yangi o'rnatilgan moslama haqida xabardor qiling.
- v. CE o'zining Inshootlar bo'yicha direktor o'rinbosari (DDF) va guruhlar bilan bog'lanish uchun javobgardir, shunda ular ish buyurtmasini yaratishi mumkin bo'ladi.
- vi. Ish buyurtmasida yangi o'rnatilgan moslamalar qayd etilishi hamda ularni yoriqlash va sinovdan o'tkazish so'ralishi lozim.
- vii. DSF hududiy ishchi guruhi ish buyurtmasi yaratilgandan so'ng WQLC bo'limining mas'ul xodimlariga elektron pochta orqali xabar yuboradi.

- viii. WQLC bo'limi xodimi ish buyurtmasida ko'rsatilgan moslamalarni yorliqlash va sinovdan o'tkazish uchun ushbu ish buyurtmasini ekologiya bo'yicha maslahatchiga (EC) topshiradi.
- ix. Tegishli tomonlar sinov natijalari olingandan so'ng natijalar va undan keyingi ko'riladigan choralar haqida xabardor qilinadi.

### Laboratoriya tahlili va laboratoriya natijalari bo'yicha hisobot:

1. Agar WQLC bo'limi xabardor qilinmagan va muddatni uzaytirish tasdiqlanmagan bo'lsa, EC suv namunalarini yig'ib olgandan keyin ikki (2) ish kuni ichida qo'rg'oshin miqdorini tahlil qilish uchun NYSDOH ELAP tomonidan sertifikatlangan laboratoriyalarga jo'natishi/yetkazib berishi shart.
2. EC laboratoriyadan tahlil natijalarini imkon qadar tezroq tayyorlab berishni talab qilishi lozim. Agar laboratoriya namuna tahlilini olti (6) ish kuni ichida taqdim eta olmasa, EC bu haqda WQLC bo'limini xabardor qilishi shart va WQLC bo'limi ECga tegishli yo'l-yo'riqlarni ko'rsatadi.
3. Barcha namunalar EPA 200.8 yoki 200.9 tahliliy usullari orqali qo'rg'oshin miqdori borasida tekshirilishi shart.
4. Tahlil yakunlangach, laboratoriya natijalarni EC vakillariga quyidagi shakllarda taqdim etishi lozim:
  - a. Laboratoriya tahlili hisoboti
  - b. Excel jadvali ko'rinishidagi ma'lumotlar hisoboti
5. EC ning DSF/WQLC oldidagi hisobdorligi
  - a. EC laboratoriyadan natijalarni olganidan keyin ikki (2) ish kuni ichida laboratoriya tahlili hisoboti va Excel jadvali ko'rinishidagi ma'lumotlar hisobotini ilova qilgan holda, laboratoriya natijalarining qisqacha mazmunini elektron pochta orqali taqdim etishi shart.

### Sinov sikllarida muammolarni bartaraf etish

Tahlil natijalari ruxsat etilgan me'yordan yuqori chiqqan har qanday suv moslamasi uchun quyidagi protokollar amalga oshiriladi:

- Suv purkagichli favvora: Moslama zudlik bilan tarmoqdan uzilishi va unga sariq yorliq osilishi shart.
- Idishlarni to'ldirish stansiyasi: Moslama zudlik bilan tarmoqdan uzilishi va unga sariq yorliq osilishi shart.
- Taom tayyorlash rakovinasini: Moslama zudlik bilan tarmoqdan uzilishi va unga sariq yorliq osilishi shart.
- Sovuq suv jo'mragi (Tibbiyot xonasi): Moslama zudlik bilan tarmoqdan uzilishi va unga sariq yorliq osilishi shart.
- LYFE markazi sovuq suv jo'mragi: Moslama zudlik bilan tarmoqdan uzilishi va unga sariq yorliq osilishi shart.
- Sinf xonasi yoki hojatxonadagi sovuq suv jo'mragi: Sinov natijalari ruxsat etilgan me'yordan past chiqquniga qadar, ushbu moslamadan "faqat qo'l yuvish uchun" degan ogohlantirish belgisini osib qo'ygan holda foydalanishni davom ettirish mumkin.

### Muammo bartaraf etilgandan keyingi protokol

- Tarmoqdan uzilgan har qanday moslama, tozalash/ta'mirlash ishlaridan keyingi nazorat namunasi natijalari qo'rg'oshin miqdori ruxsat etilgan me'yordan pastligini ko'rsatmaguniga qadar tarmoqdan uzilgan holatda saqlanishi va undagi sariq yorliq olinmasligi kerak.
- Muammo bartaraf etilgandan keyingi namuna olish uchun EC vakillari ikkita idishga namuna yig'ishlari shart: standart 1-oqim namunasiga qo'shimcha ravishda, 30 soniya davomida oqizilgan suv namunasi.
- Agar qo'rg'oshin miqdori yuqori chiqqan moslama oxirgi besh (5) yil ichida almashtirilmagan bo'lsa, ushbu moslama hamda uning devorgacha bo'lgan barcha bevosita quvurlari to'liq almashtiriladi.
- Agar moslamaning o'rnatilganiga 5 yildan kam bo'lgan bo'lsa yoki u oxirgi besh (5) yil ichida almashtirilgan bo'lib, shunga qaramay qo'rg'oshin miqdori yuqoriligini ko'rsatsa, uni almashtirish talab etilmaydi. Bunday holatda (moslama tarmoqdan uzilgan, sariq yorliq osilgan yoki tegishli ogohlantirish belgisi qo'yilgan holatda saqlangan holda) quyidagi choralar ko'riladi:
  - Moslamaga maqsadli xizmat ko'rsatish, jumladan aeratorlar/to'rlarni almashtirish/tozalash, unga ulangan quvurlardagi ichki filtrlarni (tozalash uchun) va klapanlar holatini tekshirish va h.k.

- Ushbu choralar ko'rilgandan keyin ham moslamada qo'rg'oshin miqdori yuqoriligicha qolsa va binoda shunday holatdagi bir nechta moslamalar mavjud bo'lsa, maktab "Kengaytirilgan suv xavfsizligi rejasini" ishlab chiqish va joriy etishga nomzod hisoblanadi. Ushbu reja quvurlar tizimining batafsil tahlilini, sinov natijalari tahlilini va maxsus suv oqizish protokolini o'z ichiga oladi.
- Uch marta ketma-ket o'tkazilgan sinovdan keyin me'yordan oshish holati kuzatilgan moslamalarni foydalanishdan chiqarish (ya'ni butunlay olib tashlash) varianti ko'rib chiqiladi va baholanadi. Ushbu chora faqat ichimlik suvi ta'minotiga yoki binoning faoliyatiga ta'sir ko'rsatmaydigan moslamalar bilan bog'liq holdagina amalga oshiriladi.

### Fotosuratlar namunalari












Amaldagi yangi inventar yorliqlari namunalari



Eski inventar yorliqlari namunalari

